

**III-SINFLARDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARI ORQALI
O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Olimov Anvarjon Mamirovich

Qo'qon Universiteti, Ta'lif kafedrasini o'qituvchisi

aolimov321@gmail.com

ORCID: 0009-0003-7395-5246

Annotatsiya: Mazkur maqolada III-sinf o'quvchilarining tasviriy san'at darslari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullari haqida fikr yuritiladi. Tasviriy san'at vositalari, metodik yondashuvlar, estetik didni shakllantirish, kuzatuvchanlik va tasavvur orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ijodiy qobiliyat, metodika, kuzatish, ranglar, chizmachilik, kompozitsiya, estetik did.

Kirish

Bugungi ta'lif jarayonida o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarining estetik didi, kuzatish qobiliyati, tasavvuri va badiiy ifoda vositalari shakllanadi. III-sinf o'quvchilari yosh jihatdan tasviriy san'atka nisbatan qiziqishi yuqori, ammo ularni to'g'ri yo'naltirish va metodik yondashuv zarur.

Zamonaviy ta'lif tizimi o'quvchilarining ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishni asosiy maqsad sifatida belgilab olgan. Bu esa o'z navbatida, san'at ta'lmini yanada samarali tashkil etishni talab qiladi. Tasviriy san'at, o'quvchilarining estetik didini shakllantiruvchi va ularning tasavvurini rivojlantiruvchi muhim fanlardan biridir. III-sinf o'quvchilari yoshida badiiy ijodning poydevorini yaratish, ularni rang, kompozitsiya, kuzatuvchanlik va ifodalanish usullari bilan tanishtirish katta ahamiyatga ega. Tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarining ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularning shaxsiy dunyoqarashini shakllantirish, kuzatish qobiliyatini oshirish va muhitni san'at orqali ifodalashga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish dolzarb vazifalardandir. Bunday yondashuv nafaqat san'atga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, balki o'quvchilarining umumiyligi dunyoqarashini kengaytiradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi III-sinf o'quvchilarining tasviriy san'at darslari orqali ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish usullarini o'rghanishdir. Tadqiqotda tasviriy san'at darslarida qo'llaniladigan metodik yondashuvlar, ijodiy ishslashda foydalilaniladigan materiallar va vositalar, o'quvchilarining tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarining badiiy fikrlash va ijodiy qibiliyatlarini shakllantirish jarayonida samarali yondashuvlarni aniqlash,

shuningdek, darslarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning metodik jihatlarini ko‘rsatish asosiy vazifalardan biridir.

❖ Kuzatuv usuli: Dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi, topshiriqlarga yondashuvi va ijodiy ishlarga bo‘lgan munosabati doimiy kuzatib borildi. Bu usul orqali har bir o‘quvchining qiziqishi va individual yondashuvi tahlil qilindi.

❖ Suhbat usuli: O‘quvchilar, ularning ota-onalari hamda tasviriy san’at o‘qituvchilari bilan suhbatlar tashkil etildi. Bu orqali o‘quvchilarning darsdan oladigan zavqi, san’atga bo‘lgan qiziqishi, ijodiy faoliyatga munosabati aniqlashtirildi.

❖ Amaliy tahlil: O‘quvchilarning chizgan rasmlari, kompozitsiyalari, rang tanlovi, obraz yaratishdagi mustaqilligi va tafakkuri baholandi. Har bir rasm individual ravishda o‘rganilib, o‘quvchining ijodiy o‘sish darajasi aniqlashtirildi.

❖ Tadqiqot natijalari:Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tasviriy san’at darslari o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi:

❖ Tasavvur va fantaziyani rivojlantirish: Erkin mavzular asosida chizilgan rasmlar orqali o‘quvchilar o‘z ichki olamlarini ifodalashga harakat qiladilar. Bu ularning shaxsiy dunyoqarashi va ijodiy tafakkurining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

❖ Estetik did va tafakkurni rivojlantirish: Tabiatdagi go‘zalliklarni rasm orqali ifodalash orqali bolalar estetik qadriyatlarni anglab boradilar. Ranglar uyg‘unligini sezish, kompozitsion tuzilma yaratish – bu san’at orqali bolalarda shakllanadigan muhim fazilatlardir.

❖ Diqqat va sabr-toqatni oshirish: Tasviriy san’at darslari o‘quvchini e’tiborli, puxta va natijaga yo‘naltirilgan faoliyatga undaydi. Rasm chizish jarayoni sabr-toqatni shakllantiradi, ayniqsa rang berish, mayda tafsilotlar ustida ishlash jarayoni bu jihatdan foydalidir.

❖ Ijodiy muammolarni hal qilish: Har bir rasm – bu kichik loyiha. O‘quvchi ushbu loyiha doirasida qanday obraz yaratishni, uni qanday ifodalashni, nimaga urg‘u berishni mustaqil hal qiladi. Bu esa ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

O‘quvchilarning ijodiy rivojlanishida o‘qituvchining roli juda muhim. O‘qituvchi tomonidan berilayotgan topshiriqlarning qiziqarli va o‘quvchining dunyoqarashiga mos bo‘lishi, ilhomlantiruvchi yondashuv, individual baholash va rag‘batlantirish usullarining o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ularning ijodiy salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Darslarda turli mavzularda rasmlar ishslash (tabiat manzaralari, bayram sahnalari, fantastik obrazlar, hayvonot dunyosi), ko‘rgazmali materiallar, namuna ishlar va zamonaviy texnologiyalar (proyektor, videodarsliklar)dan foydalanish o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni yanada faolroq ishtiroy etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy san’at darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘tkazish ham ijodiy yondashuvlarni kengaytiradi. Masalan, tabiatshunoslik bilan

bog‘liq mavzularda rasm ishlash orqali o‘quvchilar ilmiy va badiiy tafakkurni birgalikda rivojlantiradilar. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, o‘qituvchining ruhlantiruvchi fikrlari, dars mazmunining qiziqarli tashkil etilishi o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga keng jalb etadi. Darslarda ko‘rgazmali qurollar, multimedia vositalari va namuna ishlar o‘quvchilarning ishtiyoqini oshiradi va samaradorlikni ta'minlaydi.

Xulosa

Tasviriy san’at darslari III-sinf o‘quvchilari uchun nafaqat chizmachilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning shaxsiy dunyoqarashi, ijodiy salohiyati va estetik didini ham mustahkamlaydi. To‘g‘ri metodik yondashuv, vizual materiallardan foydalanish va erkin ijod uchun imkon yaratish o‘quvchilarni ijodkor inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. III-sinflarda tasviriy san’at darslari orqali o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish – nafaqat ularning san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish, balki tafakkuri, kuzatuvchanligi, mustaqil fikrlash, histuyg‘ularini ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tasviriy san’at darslarining mazmunli, qiziqarli va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tashkil etilishi ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi.

Ranglar bilan ishlash, erkin tasvirlar yaratish, hayotiy va fantastik obrazlar ustida ishslash orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini mustaqil shakllantirishga, tasavvurini boyitishga va shaxsiy estetik qarashlarini rivojlantirishga intiladilar. Bu jarayonda o‘qituvchining darsni interaktiv metodlar asosida tashkil qilishi, multimedia vositalaridan foydalanishi, har bir bolaning individual qiziqishlarini hisobga olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, guruhlarda ishslash, bahs-munozara va fikr almashish orqali o‘quvchilar o‘z ijodiy ishlari yuzasidan o‘zaro tahlil yuritishga o‘rganadilar. Natijada nafaqat ijodiy qobiliyat, balki kommunikativ ko‘nikmalar ham rivojlanadi. Shu boisdan, tasviriy san’at darslarida ijodiy vazifalarning ko‘proq berilishi, o‘quvchilarning mustaqil ijodiy izlanishga undalishi va estetik dunyoqarashini kengaytirish o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, ijodiy yondashuv va did bilan tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning nafaqat san’at sohasidagi, balki umumiy intellektual salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Isaxojayeva. Rangtasvir kompozitsiyasi (Natyurmort), Toshkent, 2014.
2. S.Abdirasilov va boshqalar. Tasviriy san’at, Toshkent, 2006.
3. A.M.Olimov. Ijodiy qobiliyatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omili. Journal of Innovation, Creativity and Art, Ilmiy maqola 2025
4. G.A.Hakimova. Natyurmort chizmatasviri, Buxoro, 2022.
5. A.M.Olimov. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari. Theory and analytical aspects of recent research. Ilmiy maqola 2022.